Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	



INNOVATION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBI AXBOROTINING AHAMIYATI

Xushvaqтова Nozanin Nurbek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

[ORCID: 0009-0004-5365-5147](https://orcid.org/0009-0004-5365-5147)

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion faoliyatni samarali boshqarish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Innovatsion faoliyat yuqori darajadagi noaniqlik, moliyaviy risklar hamda katta hajmdagi investitsiyalar bilan tavsiflanishi sababli, ushbu jarayonlarni boshqarishda ishonchli va tizimli axborot ta'minotiga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada boshqaruv hisobi axborotining innovatsion faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va baholashdagi muhim o'rni ochib berilgan.

Maqolada boshqaruv hisobi axborotining mohiyati, funksiyalari hamda innovatsion loyihalarni tanlash va amalga oshirish jarayonidagi ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Innovatsion qarorlar qabul qilishda xarajatlar va natijalarni taqqoslash, investitsiya samaradorligini aniqlash, risklarni moliyaviy baholash hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda boshqaruv hisobi axborotining tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, innovatsion loyihalar samaradorligini baholashda zamonaviy boshqaruv hisobi usullari — faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi, maqsadli tannarx, mahsulotning hayotiy sikli xarajatlari tahlili va byudjetlashtirish mexanizmlaridan foydalanish masalalari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, innovatsiyalarni boshqarish, boshqaruv hisobi, boshqaruv hisobi axboroti, innovatsion loyihalar, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, xarajatlar tahlili, investitsiya samaradorligi, risklarni boshqarish, strategik boshqaruv, byudjetlashtirish, mahsulotning hayotiy sikli.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of issues related to the effective management of innovation activities in ensuring the sustainable development and competitiveness of enterprises. Since innovation activities are characterized by a high level of uncertainty, financial risks, and significant investment volumes, there is an increasing need for reliable and systematic information support in managing these processes. From this perspective, the article reveals the important role of management accounting information in planning, organizing, controlling, and evaluating innovation activities.

The essence and functions of management accounting information, as well as its significance in the selection and implementation of innovative projects, are substantiated from both theoretical and practical viewpoints. The role of management accounting information in innovation-related decision-making is highlighted, including cost-benefit comparison, assessment of investment efficiency, financial evaluation of risks, and ensuring efficient use of resources. In addition, the article extensively discusses the application of modern management accounting methods in evaluating the effectiveness of innovative projects, such as activity-based costing, target costing, product life cycle cost analysis, and budgeting mechanisms.

Key words: innovation activity, innovation management, management accounting, management accounting information, innovative projects, managerial decision-making, cost analysis, investment efficiency, risk management, strategic management, budgeting, product life cycle.



Аннотация. В статье всесторонне проанализированы вопросы эффективного управления инновационной деятельностью в обеспечении устойчивого развития и конкурентоспособности предприятий. Поскольку инновационная деятельность характеризуется высоким уровнем неопределённости, финансовыми рисками и значительными объёмами инвестиций, возрастает потребность в надёжном и системном информационном обеспечении управления данными процессами. В этой связи в статье раскрыта ключевая роль информации управленческого учёта в планировании, организации, контроле и оценке инновационной деятельности.

Теоретически и практически обоснованы сущность и функции управленческого учёта, а также его значение в процессе отбора и реализации инновационных проектов. Освещена роль информации управленческого учёта при принятии инновационных решений, включая сопоставление затрат и результатов, определение эффективности инвестиций, финансовую оценку рисков и обеспечение рационального использования ресурсов. Особое внимание уделено применению современных методов управленческого учёта при оценке эффективности инновационных проектов, таких как учёт затрат по видам деятельности, целевое калькулирование, анализ затрат жизненного цикла продукции и механизмы бюджетирования.

Ключевые слова: инновационная деятельность, управление инновациями, управленческий учёт, информация управленческого учёта, инновационные проекты, принятие управленческих решений, анализ затрат, эффективность инвестиций, управление рисками, стратегическое управление, бюджетирование, жизненный цикл продукции.

KIRISH

Globallashuv jarayonida kuchli raqobat barcha sohalarda yangilikka undaydi. Fan va texnologiyalar sohasidagi eng so'nggi yutuqlar, kashfiyotlar, yangiliklar hamda ilmiy-texnik ishlanmalarning ishlab chiqilishi va ularning xizmat ko'rsatish sohasiga jadal kirib borishi iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni doimiy ravishda ta'minlaydi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda fan va texnologiyalar, ilmiy hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirish sohasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2021-yil 1-apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi [1] Farmoniga muvofiq, Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsion ishlanmalarni joriy etish ilmiy-amaliy markazi negizida davlat muassasasi shaklidagi "Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferining milliy ofisi" (qisqacha – Innovatsiyalar milliy ofisi) tashkil etildi.

Iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqib, ilmiy faoliyat natijalari, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar, jumladan, yangi qurilmalar, materiallar hamda texnologiyalarni yaratish, joriy etish, ko'paytirish va ularni tijoratlashtirish; tijoratlashtirish imkoniyatiga ega ishlanmalarni tanlash, baholash va joriy etishda faol ishtirok etish; ularni tijoratlashtirish uchun investitsiyalarni jalb qilish; ushbu yo'nalishda forumlar, xalqaro yarmarka va ko'rgazmalar o'tkazish; ilmiy, loyiha-konstruktorlik va texnologik tashkilotlarning ishlab chiqarish tashkilotlari bilan ilmiy va innovatsion sohada izchil hamkorligini rivojlantirish Innovatsiyalar milliy ofisining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlashda innovatsion faoliyat muhim omil hisoblanadi. Innovatsion g'oyalar va loyihalarni joriy etish orqali korxonalar yangi bozorlarni egallash, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, innovatsion loyihalar ko'pincha yuqori darajadagi noaniqlik, moliyaviy risklar va katta hajmdagi investitsiyalarni talab etadi, bu esa risklarni boshqarish va strategik rejalashtirishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Bunday murakkab sharoitda korxona rahbariyatiga qarorlar qabul qilishda yordam beradigan ishonchli axborot manbai sifatida boshqaruv hisobi va uning asosiy elementi bo'lgan boshqaruv hisobi axboroti muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv hisobi axboroti rahbariyatni boshqaruv qarorlarini qabul qilish, xarajatlarni tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda investitsiya samaradorligini baholash imkoniyati bilan ta'minlaydi. Shu tariqa, innovatsion loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirishda boshqaruv hisobi axboroti korxona faoliyatining moliyaviy va strategik barqarorligini ta'minlovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda korxonalar innovatsion faoliyatni boshqarishda strategik boshqaruv, byudjetlashtirish, maqsadli xarajatlarni hisoblash (target costing) hamda faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi (ABC costing) ni o'z ichiga olgan zamonaviy boshqaruv hisobi usullaridan foydalanmoqda. Ushbu usullar xarajatlarni tahlil qilish, moliyaviy natijalarni prognozlash va investitsiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, boshqaruv hisobi axboroti korxonalarga innovatsion loyihalarni tanlash va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni oldindan aniqlash va samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Mazkur maqolada innovatsion faoliyatni boshqarishda boshqaruv hisobi axborotining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilib, uning innovatsion qarorlar qabul qilishdagi o'rni va roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari



korxonalarda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishda boshqaruv hisobi axborotidan foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion faoliyatni boshqarish va boshqaruv hisobi axborotining roli sohasida xalqaro hamda milliy miqyosda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. Xalqaro miqyosda Kaplan va Norton (1996) tomonidan ishlab chiqilgan "Balanced Scorecard" konsepsiyasi [2] innovatsion faoliyatni baholashda moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan indikatorlarni integratsiyalash orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda boshqaruv hisobi axborotining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, Anthony R.N. (2003) boshqaruv hisobi tizimi korxona strategiyasini amalga oshirish va innovatsion loyihalarni boshqarishda asosiy vosita ekanligini [3] ta'kidlaydi.

Milliy tadqiqotlar doirasida O'zbekiston olimlari innovatsion faoliyatni boshqarishda boshqaruv hisobi axborotining strategik ahamiyatini o'rganib, uning loyihalar samaradorligini oshirish, xarajatlarni tahlil qilish va risklarni boshqarishdagi rolini yoritib bergan. Jumladan, To'raqulov (2021) boshqaruv hisobi axboroti orqali korxonalarda innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mumkinligini [4] ta'kidlaydi. Sattarov va Hamidov (2022) esa innovatsion loyihalarni moliyaviy baholashda faoliyatga asoslangan xarajatlarni hisobi (ABC costing) hamda hayotiy sikl xarajatlari tahlili (Life Cycle Costing) usullarini qo'llash samaradorligini [5] tahlil qilgan.

Shuningdek, innovatsion loyihalar va boshqaruv hisobi axboroti o'rtasidagi bog'liqlikni iqtisodiy samaradorlik, investitsiya samaradorligi va risklarni baholash nuqtai nazaridan o'rganuvchi tadqiqotlar ham mavjud. Xususan, Horngren va boshqalar (2014) boshqaruv hisobi ma'lumotlaridan innovatsion loyihalarning xarajatlari va natijalarini prognozlash, byudjetlashtirish hamda strategik qarorlar qabul qilish jarayonlarida foydalanish mumkinligini [6] ko'rsatib bergan.

O'zbekiston sharoitida davlatning normativ-huquqiy bazasi, jumladan, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun (2020) [7] hamda Prezident farmonlari innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilab beradi. Mazkur hujjatlar boshqaruv hisobi axborotini integratsiyalash va korxona rahbariyatini strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ishonchli axborot bilan ta'minlash imkonini yaratadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, adabiyotlarda innovatsion faoliyatni boshqarish va boshqaruv hisobi axboroti o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, innovatsion loyihalarni tanlash, resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy risklarni oldindan baholash jarayonlarida boshqaruv hisobi axborotining strategik ahamiyati ko'rsatib beriladi. Shu bilan birga, milliy kontekstda olib borilgan tadqiqotlar innovatsion faoliyatni huquqiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda korxonalarining ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalariga alohida urg'u beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda innovatsion faoliyatni boshqarishda boshqaruv hisobi axborotining ahamiyatini aniqlash va tahlil qilish maqsadida bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning birinchi bosqichi ilmiy adabiyotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilishga asoslandi. Ushbu bosqichda innovatsion faoliyat, boshqaruv hisobi va boshqaruv hisobi axborotining mohiyati, funksiyalari hamda innovatsion loyihalarni boshqarishdagi roli o'rganildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni hamda Prezident farmonlari tahlil qilinib, innovatsion faoliyatni boshqarish jarayonida boshqaruv hisobi axboroti va qonuniy mexanizmlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlab berildi.

Tadqiqotning amaliy qismi korxonalarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslandi. Bu jarayonda innovatsion loyihalarning xarajatlari va natijalari, resurslardan foydalanish samaradorligi hamda moliyaviy natijalar baholandi. Shu bilan birga, korxona rahbariyatining boshqaruv hisobi axborotidan foydalanish tajribasi so'rovnoma va ekspert baholashlari orqali o'rganildi.


Bundan tashqari, tadqiqot doirasida innovatsion loyihalarni boshqarishda boshqaruv hisobi axborotining samaradorligi milliy va xalqaro tajriba bilan solishtirildi. Loyihalarning moliyaviy natijalarini prognozlash va investitsiya samaradorligini baholash maqsadida modellash usullaridan foydalanildi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi boshqaruv hisobi axborotidan tizimli foydalanish innovatsion loyihalarni tanlash, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni nazorat qilish hamda strategik qarorlar qabul qilish jarayonlarini sezilarli darajada samaraliroq amalga oshirish imkonini berishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, taklif etilgan metodologik yondashuv O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasiga moslashtirilgan holda innovatsion faoliyatni boshqarishning ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion faoliyat korxonalarda yangi mahsulot, xizmat yoki jarayonlarni yaratish va joriy etish jarayonidir. Ushbu jarayon samarali boshqarilmasa, loyihalar moliyaviy va resurs jihatdan zarar ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv hisobi axboroti korxona rahbariyatiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:



1-rasm. Innovatsion faoliyatni boshqarishda boshqaruv hisobi axborotlarining imkoniyatlari

Boshqaruv hisobi axboroti korxona ichki hisobotlaridan olingan ma'lumotlarga asoslanadi va bu ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilinadi. Shu bilan birga, u normativ-huquqiy bazaga moslashtirilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni kabi hujjatlar bilan uyg'un ishlaydi.

Boshqaruv hisobi axboroti quyidagi asosiy yo'nalishlarda qo'llaniladi 1-jadval.

2-jadval. Innovatsion faoliyatni boshqarishda boshqaruv hisobining qo'llanilish yo'nalishlari

Moliyaviy baholash va investitsiyalarni rejalashtirish	Innovatsion loyihalarni amalga oshirishda korxona rahbariyati ROI, NPV kabi moliyaviy ko'rsatkichlarni boshqaruv hisobi ma'lumotlariga tayangan holda tahlil qiladi. Bu jarayon loyihalarning samaradorligini baholash va eng foydali loyihalarni tanlash imkonini beradi
Resurslarni boshqarish va xarajatlarni nazorat qilish	Faoliyatga asoslangan xarajatlar tizimi (ABC-costing) yordamida korxona rahbariyati resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Masalan, ishlab chiqarish, sinov va marketing xarajatlari boshqaruv hisobi ma'lumotlari yordamida tahlil qilinadi va optimallashtiriladi
Strategik qarorlar qabul qilish	Boshqaruv hisobi axboroti korxona strategiyasini shakllantirish va amalga oshirishda ishlatiladi. Innovatsion loyihalar bo'yicha qarorlar ma'lumotga asoslangan holda qabul qilinadi, bu esa xatoliklarni kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi
Risklarni baholash	Innovatsion loyihalarning muvaffaqiyatini oldindan prognozlash va risklarni kamaytirish boshqaruv hisobi axboroti yordamida amalga oshiriladi. Ekspert baholari va moliyaviy tahlillar asosida risk indeksi aniqlanadi, bu esa sarmoya va resurslarni maqbul yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi



Yuqoridagi jadvallar shuni bildiradiki, innovatsion faoliyat strategiyasini to'g'ri rejalashtirish va uning samaradorligini baholashda boshqaruv hisobi asosiy rol o'ynaydi, bu esa ularning integratsiyalashuvi ahamiyatini oshiradi.



2-rasm. Innovatsion faoliyat va boshqaruv hisobi axborotini integratsiya qilish modeli

Umuman olganda, innovatsion faoliyatni boshqarish innovatsion menejment fani doirasida o'rganiladi va uni boshqaruv hisobi bilan bog'lab tahlil qilganda, innovatsion menejment va boshqaruv hisobi fanlarining uzviy integratsiyalashuvi zarurligi aniq namoyon bo'ladi. Aslida, 3-jadvalda keltirilgan model innovatsion menejment va boshqaruv hisobi fanlari o'rtasidagi integratsiyalashuv modeli deb atalishi mumkin.

Innovatsion qarorlarni qabul qilishda boshqaruv hisobi axborotlarining roli haqida gapiradigan bo'lsak, ularni quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Xarajatlar va natijalarni taqqoslash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida korxona cheklangan resurslardan foydalanadi. Boshqaruv hisobi axboroti loyihaning xarajatlari va kutilayotgan natijalarni tizimli ravishda hisoblash imkonini beradi. Bu esa rahbarlarga turli loyihalarni solishtirish va eng optimal variantni tanlash imkoniyatini yaratadi. Masalan, yangi texnologiyani joriy qilish xarajatlari va undan kutilayotgan foyda ko'rsatkichlari boshqaruv hisobi yordamida aniq raqamlar orqali baholanadi.

2. Investitsiya samaradorligini aniqlash. Innovatsion loyihalar ko'pincha katta moliyaviy sarmoya talab qiladi. Boshqaruv hisobi yordamida investitsiya samaradorligini o'lchash uchun moliyaviy ko'rsatkichlar – ROI (Return on Investment), NPV (Net Present Value), IRR (Internal Rate of Return) – hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar rahbarlarga investitsiyaning foydali yoki yo'qligini oldindan baholash imkonini beradi va loyihaning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi.

3. Risklarni moliyaviy baholash. Innovatsion qarorlar yuqori noaniqlik va moliyaviy xavf bilan bog'liq bo'ladi. Boshqaruv hisobi loyihaning moliyaviy risklarini aniqlash, ularni raqamlar orqali ifodalash va ehtiyot choralarini rejalashtirish imkonini beradi. Bu esa korxonaga loyihani amalga oshirish yoki rad etish bo'yicha asosli qaror qabul qilish imkonini yaratadi.

4. Resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash. Innovatsion loyihalar resurslarni – moliya, ishchi kuchi, vaqt va texnologiyalarni – talab qiladi. Boshqaruv hisobi axboroti yordamida resurslar optimal taqsimlanadi, xarajatlar nazorat qilinadi va samaradorlik oshiriladi. Shu tariqa, korxona innovatsion loyihalarni minimal xarajat bilan maksimal foyda olish maqsadida amalga oshiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sezilarli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston innovatsion ko'rsatkichlarida muvaffaqiyatga erishib, bu Global Innovatsiyalar Indeksi (GII) reytingida o'z aksini topdi.

Global innovatsiyalar indeksi (GII) Jahon Intellectual Mulk Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan yillik hisobot bo'lib, u mamlakatlarni innovatsion ko'rsatkichlari asosida reyting qiladi. GII institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infratuzilma, bozor va biznesning murakkabligi, bilim va texnologiya natijalari, ijodiy natijalar kabi turli omillarni hisobga olgan holda dunyo mamlakatlaridagi innovatsion landshaftning keng qamrovli ko'rinishini taqdim etadi.

2022-yilgi hisobotga ko'ra, 131 ta davlatlar uchun 81 ta batafsil o'lchov mezonlari hisoblab chiqilib, GII iqtisodiyotlarning innovatsion samaradorligini baholovchi yetakchi ko'rsatkichlardan biriga aylandi. Hozirgi



kunda, GII siyosatchilar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun yillik innovatsion taraqqiyotni baholash imkonini beradigan muhim qiyosiy vositalardan biriga aylandi.

2022-yilning 29-sentyabr kuni "Global innovatsiyalar" indeksining 2022-yilgi hisoboti e'lon qilindi. O'zbekiston 2015-yilda 141 ta davlat orasidan 122-o'rinni egallagan bo'lsa, 2022-yilda 131 ta davlat orasida 40 pog'onaga yuqorilab, 82-o'rinni egalladi hamda Markaziy Osiyoning yetakchisiga aylandi va Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida Hindiston va Erondan keyin 3-o'rinni egalladi.

Ushbu natijaga erishishda so'nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fan va innovatsiyalar sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda Davlatimiz rahbarining soha rivojiga alohida e'tibor qaratganlari alohida e'tiborga sazovor.

4-jadval. O'zbekiston Respublikasi Global innovatsiyalar indeksida¹

T/r	Komponentlar	2015		2022		O'zgarish (↓↑)
		Baho	O'rin	Baho	O'rin	
1.	Institutlar sifati	49,0	106	57,3	63	↑43
2.	Inson kapitali va ilmiy-tadqiqotlar faoliyati	27,0	76	30,8	65	↑11
3.	Infratuzilma	29,0	101	41,7	74	↑27
4.	Bozor rivojlanishi	44,4	85	39,9	60	↑25
5.	Biznesni rivojlantirish	20,0	138	25,3	74	↑64
6.	Fan va texnologiyalar	27,2	61	17,9	80	↓19
7.	Ijodiy mahsulotlar	8,5	138	7,7	102	↑36

5-jadval. MDH mamlakatlari reytingi²

T/r	Mamlakat	2015 y.		2022 y.		Bahodagi o'zgarish	O'rindagi o'zgarish
1	Rossiya	39,32	48	34,3	47	↓5.02	↑1
2	Moldova	40,53	44	31,1	56	↓7.42	↓12
3	Belarus	38,23	53	27,5	77	↓10.73	↓24
4	Armaniston	37,31	61	26,6	80	↓10.71	↓19
5	O'zbekiston	25.89	122	25.3	82	↓0.59	↑40
6	Qozog'iston	31,25	82	24,7	83	↓6.55	↓1
7	Ozarbayjon	30,10	93	21,5	93	↓8.6	-
8	Qirg'iziston	27,96	109	21,1	94	↓6.86	↑15
9	Tojikiston	27,46	114	18,8	104	↓8.66	↑10

6-jadval. Global innovatsion indeksning 2022-yil hisobotidagi indikatorlari ro'yxati³

№	Indikator nomi	2020-y. o'rin	2021-y. o'rin	Farqi
1.	Biznesni qo'llab quvvatlash siyosati	-	22	▲22
2.	O'quvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi nisbat, o'rta ta'lim	37	37	0
3.	Ilm-fan va muxandislik sohasida bitiruvchilar	7	6	▲1
4.	Elektron hukumat xizmatlari	46	46	0
5.	Kapitalni yalpi tarzda to'plash	7	6	▲1
6.	Mahalliy sanoatning xilma-xilligi	22	37	▼15
7.	Universitetlar va sohalar o'rtasidagi ilmiy hamkorlik	-	29	▲29
8.	Klasterni rivojlanish holati	-	27	▲27
9.	Kelib chiqishi bo'yicha foydali model ilovasi	22	18	▲4
10.	Mehnat unumdorligining o'sish sur'ati	8	7	▲1

1 <https://innovation.gov.uz/info/global-innovatsion-indeks>

2 <https://innovation.gov.uz/info/global-innovatsion-indeks>

3 <https://innovation.gov.uz/info/global-innovatsion-indeks>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshqaruv hisobi axboroti innovatsion loyihalarni tanlash va baholashda muhim vosita hisoblanadi. ROI, NPV, xarajat/mahsulot birligi va risk indeksi kabi ko'rsatkichlar asosida rahbariyat loyihaning moliyaviy samaradorligi va xavf darajasini aniq baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarni nazorat qilish boshqaruv hisobi axboroti yordamida ta'minlanadi. Faoliyatga asoslangan xarajatlarni tahlili (ABC costing) korxonalarda ishlab chiqarish va marketing xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Investitsiya samaradorligini oshirish va risklarni kamaytirish ham boshqaruv hisobi axborotidan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Amaliy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, past risk va yuqori NPV ko'rsatkichiga ega loyihalarni tanlash korxona muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Strategik qarorlarni ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish korxona raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Boshqaruv hisobi axboroti rahbariyatga innovatsion strategiyani shakllantirish va uni amalga oshirish jarayonida zarur bo'lgan yetarli va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Umuman olganda, boshqaruv hisobi axboroti innovatsion faoliyatni boshqarishning strategik va operativ asosi bo'lib, korxona ichki resurslarini optimal taqsimlash hamda innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, boshqaruv hisobi tizimini takomillashtirish. Korxonalarda innovatsion loyihalarni baholash va monitoring qilish uchun boshqaruv hisobi tizimi integratsiyalashgan va real vaqt rejimida ishlaydigan bo'lishi lozim. Bu qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va xatoliklar ehtimolini kamaytiradi.

Ikkinchidan, moliyaviy va strategik ko'rsatkichlarni joriy etish. ROI, NPV, xarajat/mahsulot birligi va risk indeksi kabi ko'rsatkichlarni tizimli ravishda hisoblash va tahlil qilish tavsiya etiladi. Ushbu ko'rsatkichlar innovatsion loyihalarning samaradorligini aniq baholash imkonini beradi.

Uchinchidan, resurslar va xarajatlarni optimallashtirish. Faoliyatga asoslangan xarajatlarni tahlili asosida marketing, ishlab chiqarish hamda sinov-test jarayonlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, normativ-huquqiy me'yorlarga moslashtirish. Innovatsion faoliyatni boshqarishda boshqaruv hisobi axboroti tizimi O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Prezident farmonlariga moslashtirilishi zarur. Bu korxonalarga innovatsion loyihalarni moliyaviy va strategik jihatdan samarali qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Beshinchidan, xodimlar malakasini oshirish. Boshqaruv hisobi axborotidan samarali foydalanish uchun xodimlar va rahbariyatning moliyaviy tahlil hamda innovatsion boshqaruv sohasidagi malakasini muntazam oshirib borish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5352267>
2. Kaplan R., Norton D. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996.
3. Anthony R.N. Pioneering Thinker in Management Accounting. – September 2011, Vol. 25, No. 3, pp. 593-602. DOI: 10.2308/acch-50025.
4. To'raqulov A.A. Boshqaruv hisobi (takomillashtirilgan nashr). Toshkent, 2009. (Bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirilgan).
5. Hamidov B. Boshqaruv hisobida qaror qabul qilish. Toshkent, 2014. (Strategik va operativ qarorlar uchun hisob axborotidan foydalanish).
6. Sattarov A. Xarajatlarni hisobi va boshqaruv. Toshkent, 2010. (Xarajatlarni tasniflash, nazorat qilish va tahlil qilishga bag'ishlangan).
7. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. First edition: 1962 (C. T. Horngren).
8. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-630-son, 2020-yil 24-iyul. <https://lex.uz/docs/-4910391>
9. Taniyev A. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik. Samarqand, 2020.
10. Xamdamova G., Astanakulov O., Matchanov A. Innovatsion menejment. Darslik. Toshkent, 2018.
- Internet manbalar
11. www.lex.uz
12. www.stat.uz
13. www.mf.uz
14. www.norma.uz
15. www.innovation.gov.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
